

SO'ZNING LEKSIK MA'NOSI VA MATNDA LEKSIK QO'LLANILISHI*Ismanova Odinaxon Urunbayevna**Andijon davlat chet tillari instituti**Nemis tili nazariyasi amaliyoti kafedrası doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'zning leksik ma'nosi va uning leksik qo'llanilishi haqidagi muhim ma'lumotlar berib o'tilgan. Leksik qo'llash esa kontekstning o'zida sodir bo'lishi, uni individual, konkret bir muallif tuzgan matn yuzaga keltirishi, leksik qo'llash shu kontekstning o'zi tufayli tug'ilishi va shu kontekst doirasidagina mavjud bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Leksika, so'z, kontekst, leksik qo'llash, borliq, jarayon, matn, suhbat

So'zning qo'llanilishi ma'lumdarajada leksik ma'noning taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra so'zning qo'llanilishini "leksik qo'llash" deb atash mumkin. Leksik ma'no bilan leksik qo'llash bir-biridan farq qiladi.

1) Leksik ma'no til birligidir, ya'ni shu tilda gapiruvchilar tomonidan tanilgan, qabul qilingan bo'ladi. Leksik qo'llash esa, individual nutq hodisasidir, ya'ni shu tilda gapiruvchilar orasida umumlashmagan, faqat ayrim kishining nutqigagina xos bo'ladi. 2) Leksik ma'no lug'at tarkibiga kiradi, u lug'atda beriladi. Leksik qo'llash esa lug'atda berilmaydi. Lekin lug'atga kirishi mumkin bo'lgan imkoniyat (potensial)dir. 3) Leksik qo'llash shu so'zga xos leksik ma'nolardan birining ayrim kishi nutqida yangicha berilishi, yangicha baholanishidir. Leksik qo'llash shu tilda gapiruvchi shaxslar tomonidan tanilsa, ko'pchilik nutqida ishlatilsa, shundagina leksik ma'noga aylanadi. 4) Leksik ma'no kontekstda reallashadi: kontekst ko'p ma'noli so'zning bir leksik ma'nosini reallashtiradi. Leksik ma'no har galgi konkret bog'lanishlar tufayli yuzaga kelmaydi, balki shu kontekstga shakllangan bo'ladi, kontekstning shu ma'nosini yuzaga chiqarib beradi, xolos. Leksik qo'llash esa kontekstning o'zida sodir bo'ladi. Uni individual, konkret bir muallif tuzgan matn yuzaga keltiradi, leksik qo'llash shu kontekstning o'zi tufayli tug'iladi va shu kontekst doirasidagina mavjud bo'ladi. Masalan, A.Qahorning "Sinchalak" asaridan keltirilgan parchaga nazar solsak quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin. ..Qalandarov yaxshi tashkilotchi deymiz, lekin bu chiroyli guldasta qanaqa gullardan bog'langanini bilmaymiz.¹ Bu matnda guldasta so'zi orqali tilga olinayotgan qahramonning tashkilotchilik mahorati tavsiflangan. Leksik qo'llash nutqning deyarli barcha ko'rinishlarida uchraydi. Shunday bo'lishiga qaramay, leksik qo'llash asosan badiiy nutqqa xos deb qaraladi. So'zning semantik struktur

¹ Abdulla Qahhor. "Sinchalak" Toshkent "Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyoti 55 bet

asiga shu soʻzning tildagi boshqa soʻzlar bilan boʻlgan maʼno munosabatlariga zid kelmay qoladigon leksik xolatlardagina bisyoriyni qoladigon leksik qoʻllashlarga ijobiy boʻladi. Shunday talabga javob beradigan leksik qoʻllash shu soʻzning leksik maʼnosida mavjud imkoniyatlarni davom ettiradi va bora-bora leksik qoʻllashdan leksik maʼnoga aylanishi ham mumkinligining mumkin. Sinonimlar nutqni diversifikatsiya qilishga imkon beradi, bir xil soʻzlarni ishlatishdan saqlaydi. Ammo yozuvchilar mexanik ravishda takrorlangan soʻzni sinonimi bilan almashtirmaydilar, balki ishlatilgan soʻzlarning semantik vayoki ekspressiv soyalarini hisobga oladilar. Masalan, Ilf va Petrov: Mening qayigʻim hozirgina shu joyda edi!- qichqirdi bir koʻzli; Bu gʻalati!- qichqirdi bir koʻzli; --- Oʻrtoqlar!- qichqirdi bir koʻzli. Zum Beispiel: Ilf und Petrov: Mein Boot war gerade an dieser Stelle!- rief einäugig, das ist seltsam!-rief einäugig, Kameraden rief der Einäugige. Ayniqsa, koʻpincha dialogni uzatishda soʻzlarni takrorlashdan qochish kerak. Bunday hollarda nafaqat sinonimlar, balki maʼno jihatdan yaqin soʻzlar ham qoʻllaniladi. qoʻllaniladi. Shunday qilib, Turgenev: -Ich bin wirklich glücklich,-begann er ...-Ich hoffe, lieber EugeneVasile , sie werden sich bei uns nicht langweilen,- Nikolei Petrovich fuhr fort...-Wie und Arkady,-Nikolei Petrovich sprach wieder...- Jetzt, -er hob ab, im Auto Vater hat es genommen.²

- chin dildan xursandman,- u boshladi ... - Umid qilamanki, aziz Evgeniy Vasilevich, biz bilan zerikmaysiz,- davom etdi Nikolay Petrovich...- Qanday qilib, Arkadiy,- gapirdi Nikolay Petrovich yana...- Endi,- koʻtarib oldi; moshinada olib ketdi ota. Sinonimlarni tanlash stilistik jihatdan asoslangan boʻlishi kerak. Soʻzning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini oʻzida mujassamlashtiradi. Chunki soʻzlar tilning lugʻat tarkibini shundaygina tashkil etmay, umuman, tilning sistema va strukturasiidagi barcha bogʻlanishlarni taqozo etadi. Koʻpincha soʻzning maʼnosi haqida gapirganda, uning narsa va tushuncha bilan aloqasi va tilda qanday ifodalanishi koʻzda tutiladi. Biroq qadimiy tilshunoslikda soʻz va nom oʻrtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi. Baʼzi tilshunoslar soʻzning faqat aytilish tomoniga eʼtibor bergan edilar. Soʻzning aytilishi uning moddiy tomoni, yaʼni tovushlarning birikuvi yoki bir tovush ekanligini koʻrsatadi. Tinglovchi va soʻzlovchi uchun soʻzning aytilishi obyektiv haqiqatdir. Biroq soʻzning faqat aytilishi uni izohlay olmaydi. Soʻz aytilishi bilan narsa yoki hodisa oʻrtasidagi bogʻlanish uning maʼnosini yuzaga chiqaradi. Bu aloqa, odatda, uchburchak shaklida koʻrsatiladi:³

Mazkur qarash albatta barcha soʻzlar uchun shunday tartibda tuzilgan, degan notoʻgʻri xulosaga olib kelishi mumkin. Chunki soʻzning maʼnosi bizga boshqa bir narsa yoki hodisani eslatganidek, oʻz navbatida biror narsa ham boshqa narsani kishi koʻz oldiga keltirishi mumkin. Chunki soʻzning maʼnosi uchun uning aytilishi bilan soʻzdan

² Ivan Turgenev. Otalar va bolalar, yangi asr avlodi nashriyoti. 2015

³ (<https://fayllar.org/aloqa-tarmoqlari-aloqa-kanallaridan-iborat-bolib-ularning-konf.html>)

tashqarida bo'lgan tushuncha o'rtasidagi bog'lanish zarur deb hisoblansa, har xil tushunchalar tilda bir xil tuzilgan degan xulosaga kelish mumkin. Aslida esa so'zlar turli struktura tuzilishiga egadir. Shu tufayli so'zning narsa va tushuncha bilan bog'lanishini shartli ravishda qaramoq zarur. Chunki barcha so'zlar ham narsa, hodisa yoki belgining nomini atamaydi⁴ ya'ni hamma so'zlar atama funksiyasiga ega emas. So'zlar ichida otlar (narsa), fe'llar (harakat), sifatlar (narsa belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) atama funktsiya bajaradi.

Yordamchi so'zlar ham nominativ funktsiya bajarmaydi. Bir mustaqil so'zning nominativ funktsiyasi doimo faqat bir narsa yoki tushuncha, harakat yoki belgiga qaratilavermaydi. Ba'zan esa aksincha, bir narsa bir qancha nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, gul so'zi gulning barcha turlarini ifodalaydi. Biroq Braziliyadagi oborogenlar tilida to'tiqushning har bir turi o'z nomiga ega. O'zbek tilidagi "bo'sh vaqt" tushunchasi ingliz tilida spare time, free time, leisure so'zlari bilan ifoda etiladi. Nemis tilida esa Freizeit. Ingliz tilida bu so'zlar ma'nosiga ko'ra turlicha ishlatiladi. Spare time kechqurun ishdan keyin yoki haftaning dam olish kunlaridagi bo'sh vaqtni ifodalaydi. Free time kun davomida ish yoki o'qishdan xolis bo'lgan bo'sh vaqtni bildiradi. Leisure so'zi dam olish vaqtini ko'rsatadi. Ingliz tilida dam olish⁵ tanaffus qilish, madaniy xordiq chiqarish ma'nolarini ifodalagan yana bir qancha so'zlar, jumladan recreation, rest, relaxation, amusement, entertainment⁶ kabilar mavjud. Nemischa Freizeit esa bo'sh vaqt, spatium(Avstriya), joylashtirish vaqti, ajratiladigon vaqt, avtonom vaqt, so'zlash vaqti ma'nolarida ishlatiladi. Bo'sh bo'lmagan vaqt, bo'sh vaqt, professional ish vaqti, belgilash vaqti, majburiyat vaqti va hokazolar. Zeitung lesen kannst du in deiner Freizeit. Bo'sh vaqtingda gazeta o'qishing mumkin.

Dragen ist Freigänger, arbeitet draußen für die Stadtwerke. Das bedeutet, man darf auch ein bisschen Freizeit draußen verbringen. Dragan bir kunlik ta'tilda, tashqarida davlat kommunal kompaniyasida ishlaydi. Ya'ni siz ham bo'sh vaqtingizni tashqarida o'tkazishingiz mumkin. Alle Vorhaltungen, Überzeugungsversuche und Bitten halfen nichts, der Doktor blieb unbeirrbar und lernte in seiner Freizeit seelenruhig Arabisch, Kisuaheli und Mandingo-Dialekte.

Barcha ayblovlar, ko'ndirish usullari va iltimoslar foyda bermadi. Shifokor bo'sh vaqtlarida arab, kisvaxili va mandingo lahjalarini xotirjam o'rgandi. Bu so'zlar ham qo'llanishiga ko'ra farq qiladi. Biz buni quyidagi misol orqali kuzatishimiz mumkin. Die Kirche bietet dieses Jahr eine Jugend freizeit in die Taschkent an. Cherkov bu yil Toshkentdagi Yoshlar lagerini taklif qilmoqda.⁷ So'zlarning nutq jarayonida yoki matnda ishlatilish o'rnini kontekst deb ataladi. So'zlarning ma'nosi

⁴ (<https://fayllar.org/mavzu-sifat-va-ravishlarda-belgining-ortiq-yoki-kamligini-ifod.html>)

⁵ (<https://fayllar.org/dam-olish-daqiqasi-v2.html>)

⁶ (<https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-qa-v15.html>)

⁷ Dictamp German Dictionary- <https://14,44>

kontekst yordamida oydinlashadi. Tildagi barcha birliklar (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap) umumlashtiruvchilik xarakteriga ega. So'zning mavhum tabiati uning bir qancha narsa, hodisa va belgilarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Biroq so'z ma'lum nutq situatsiyasida yoki kontekstda o'zining aniq shaklida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ismanova O.U. XORIJIY TILLARNI OQITISHDA HAR BIR OQUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUGULLANISH VA KOPRIK TIL MOHIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO ILMIY TATQIQOTLAR JURNALI 2022.**
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:9yKSN-GCB0IC
2. **Ismanova O.U. TURLI TIZIMLI TILLARDA TARJIMON MAHORATI. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2023**
3. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
4. **O. ISMANOVA. NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB FOYDALANISH USLUBLARI** Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2023 21ноя
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC
5. **Odinaxon Ismanova. NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI.** Центральноазиатский журнал образования и инноваций
2023 2 ноя (93-97)
7. https://scholar.google.ru/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Ismanova+Odinaxon&oq=
8. N. Mamatova, M. Sobirjonova, A. Abdurahimov, Sh. Sharobiddinova **BEDEUTUNG UND BESONDERHEITEN LITERATUR // International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey March. 20th 2023.**
9. R. Mamatov, Sh. Abduxoshimova, I. Akbarova, G. Nomonova **DIE SPEZIFISCHE HISTORISCHE BEDEUTUNG DER DEUTSCHEN PHONETIK// International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia March 23rd 2023**
10. N. Mamatova **Aspects of Achieving Efficiency in the Educational Process on the Basis of an Innovative Approach// Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Journal impact factor: 8.115 ISSN (E): 2795-739X, Volume 15, p 235, December 2022.**

- 11.R.R.Mamatov THE CONCEPT SPHERE OF HERTA MÜLLER'S METAPHORIC CREATION// 13th- International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education, Hosted from Berlin, Germany, p 89 April 27th 2023.
- 12.Jurayev Azizbek Anvarovich,
- 13.A BRIEF HISTORY OF GERMAN LITERATURE // INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 2 ISSUE 16, ISSN 2171-381X, SJIF 2023. 5.305
- 14.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=7asS6TwAAAAJ&citation_for_view=7asS6TwAAAAJ:Zph67rFs4hoC
- 15.A.B Омаджон ЗООФРАЗЕМАЛАРНИ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Ijodkor o'qituvch// 2022/12/16 16.2,659-664.